

## VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKANING AHAMIYATI

**Yuldashev Rasulbek Tulibay o'g'li**  
IIV Akademiyasi 307-guruh Kursanti

**Kirish:** Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 12-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hay'atining kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilishida ishtirok etib, profilaktika inspektorlarining bilim saviyasini muntazam oshirib borish borasida qator topshiriqlar berdi. Mazkur ko'rsatmalarning ijrosi bugungi kunda huquqbazarliklar profilaktikasi xizmati vakillarining chuqur bilimli, o'z ishining ustasi bo'lgan chinakam professional xodimlar sifatida faoliyat olib borishiga imkon yaratayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ichki ishlar organlari tizimida chuqur va har tomonlama islohatlarning amalga oshirilishi bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning ma'suliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari tug'risida"gi PF-5005-sonli farmonida ham o'z ifodasini topgan. Bundan ko'zlangan maqsad, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning ta'biri bilan aytganda, "kelajakda el-yurtimizning ishonchi va mehrini qozongan, tom ma'nodagi xalqpavar ichki ishlar tizimini yaratishimiz kerak".\* Shuningdek, ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli tub islohatlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan yana biri huquqbazarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish barobarida ularning sodir etilishiga olib keluvchi shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va ularga barham berishdan iborat. Shu bois, huquqbazarliklar profilaktikasining asosiy sub'yektlaridan biri hisoblangan ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatini chuqur o'rganish va uni yanada takomillashtirish bugungi kunning talabidir.

**Kalit so'zlari:** viktimalogiya, viktimalogik profilaktika, kriminogen vaziyat, aybsiz victim, aybli viktim.

**Viktimalogik profilaktika** — viktimogen faktorlarining vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik, ularni bartaraf qiliyah yoki neytrallashtirish choralarini qo'llash, jinoyatning potensial qurbanlarini aniqlsh va ularni himoya qilish imkoniyatlarini oshirish yo'li bilan ayrim turdagji jinoyatlarining oldini olish

Huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbazarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyati huquqbazarliklarning viktimalogik profilaktikasidir.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o'tkazish;

aholiga, shu jumladan huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o'rgatish;

huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni aniqlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;

huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarini tashkil etish;

huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish;

g'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilish;

hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yo'li bilan aholiga huquqiy tarbiya va ta'lim berish;

g'ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruв xizmatlarini tashkil etish;

profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihamalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida jahon Internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish;

huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullari to'g'risida elektron adabiyotlarni tarqatish.

Agar kerak bo'lsa, quyidagi tavsiyalar ko'rinishidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1) o'zlarining kasbiy faoliyati va kundalik hayotida shaxsiy xavfsizlikni ob'ektiv ravishda ta'minlay oladigan ma'lum axloqiy me'yorlarga ega bo'lgan shaxslarning ayrim guruhlarini aniqlash;

2) shaxsiy mulkni o'g'rilar, o'g'rilar yoki firibgarlardan himoya qilish qoidalarini tushuntiradi;

3) jinoyatchining shaxsida uning oqilona harakatlarini, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilish tartibini tushuntirish uchun ishlatilishi mumkin.

Xulosa. Huquqbuzarliklarning oldini olish bilan bevosita shug'ullanadigan organ yoki muassasaning faoliyati, ushbu shaxsni tajovuzkordan jabrlanuvchiga aylantirish

xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika choralarini qo'llash qurbon xarakteridagi jinoyatlarning oldini olishdir. Viktimologik tadqiqotlar natijasida olingan xulosalar jinoyatchilikning sabablari va sharoitlarini aniqlashda, shuningdek jinoyatchilar orasida yuzaga keladigan salbiy hodisalarni baholashda muhim ro'l o'y Nashiga alohida e'tibor qaratilmoqda .Fuqorolar o'z huquqlari va majburiyatlarini bilmaganliklari sababli ham huquqbazarlikdan jabrlangan shaxs bo'lib qolmoqdalar. Avvalo shuni nazarda tutish zarurki bizni xalqimiz soda va mehmondostxalq hisoblanadi aynan hozirgi zamon shiddat bilan tivojlanayotgan bir vaqtda bu kabi odatlar ko'plab jabrlanishlarga sabab bo'lyapti. Yana shuni takidlash joizki viktimologiyada aybsiz va aybli viktimlar atamasi bor bo'lib o'shani aybli viktimlik darajasi yurtimizda yuqori darajaga chiqmoqda hozirda bu kabi jabrlanishlar oldini olishga faqatgina targ'ibot chora tadbiri qo'llanilmoqda. Meni fikrimcha yana shu kabi chora-tadbirlar orqali omma ichiga kirib borishimiz kerak debv hisoblayman.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil

Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonun 2016-yil 16-sentabr

Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonun 2014-yil 14-may